

**KO‘P TARMOQLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA  
ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR TA’LIMIDA OILA  
HAMKORLIK TADBIRLARINING TASHKIL ETILISHI**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*Maxsus pedagogika kafedrasи*

*(PhD) v.b. professor*

**Xamidova M. U.**

*Maxsus pedagogika yo ’nalishi*

*3-bosqich talabasi*

**Ergasheva Sh. T.**

**Annotatsiya:** Maqolada ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida eshitishida nuqsonini bo‘lgan bolalar ta’limida oila hamkorlik tadbirlarining tashkil etilishining prinsiplari, nazariy hamda amaliy tadqiq etilishi yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar, maslahat-konsultatsiyalar, korreksion-rivojlantiruvchi, texnologiya.

**Annotation:** The article describes the principles, theoretical and practical research of the organization of family cooperation activities in the education of children with hearing impairments in multi-profile preschool educational institutions.

**Keywords:** Multidisciplinary preschool educational institutions, children with hearing impairments, legal and regulatory documents, advisory consultations, corrective and developmental, technology.

**Аннотация:** В статье освещаются принципы, теоретическое и практическое исследование организации мероприятий по сотрудничеству с семьей в обучении детей с нарушениями слуха в многопрофильных дошкольных образовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** Многопрофильные дошкольные образовательные учреждения дети с нарушениями слуха, нормативно-правовые документы, консультации, коррекционно-развивающие технологии.


Respublikamizda bolalarning ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini ta’minlash, ularni har tomonlama rivojlantirish va maktabga tayyorlash sifati tubdan yaxshilanmoqda: huquqiy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘i kengaytirildi, moddiy-texnika negizi mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi»da: «Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi

va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish» masalasi ustuvor etib belgilandi.<sup>1</sup> Bu esa zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullari asosida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning boshlang‘ich ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga tayyorlash uchun zamin yaratdi.

Ma’lumki, shaxsning qadriyati uning jamiyatdagi tutgan o‘rni bilan belgilanib, ko‘p jihatdan uning tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois jamiyatda tarbiya faqat ota-onanining shaxsiy ishigina bo‘lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi sanaladi. Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlaboq, ota-onsa oldida turgan asosiy maqsad va vazifa bo‘lib, bolaga ta’sir ko‘rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Shu sababli, ota-onsa farzandlarining birinchi pedagoglari hisoblanadi. Oilaning bola tarbiyasiga munosabati, ta’siri maqsadga muvofiq sharoitlar yaratilganda yanada samaraliroq bo‘ladi.

D.A.Nazarova tadqiqot davomida ota-onalar bilan ishlashning turlicha shakllaridan: maslahat-konsultatsiyalar (pedagoglarning guruh va yakka tartibdagi maslahatlari), anonim muloqot, ma’rifiy (trening, ma’ruza, davra suhbatlari, mavzuga oid muhokamalar) va amaliy tadbirlardan (ochiq mashg‘ulotlar, bayram tadbirlari, bolalar bilan hamkorlikdagi faoliyat) foydalangan holda ish olib borildi. Ularda asosiy e’tibor uy sharoitida bolalar bilan olib borilishi lozim bo‘lgan korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimining yoritib berilishiga qaratildi.

G.M.Salixova oilada kar va zaif eshituvchi bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muammolarini tadqiq etib, ularni ijtimoiy hayotga moslashishga yo‘naltirilgan jarayonida muloqot ko‘nikmalarini quyidagi omillar ta’sirida shakllanishini ta’kidlaydi :



O‘rganilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, nazariy va amaliy

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги 4947-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ.

manbalar hamda mavjud amaliyot tahlillaridan kelib chiqqan holda maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar oilasini korreksion-pedagogik yordamga jalb etishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlar va o‘ziga xos korreksion ta’sirni ta’minlovchi metodikani ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi.

Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar oilasini korreksion-pedagogik yordamga jalb etish texnologiyalari quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:



Texnologiyaning motivatsion-qadriyatli bosqichi o‘zida: bilishga doir va kasbiy motivatsiyani o‘zaro uyg‘unlashtirishdagi barqaror ichki ehtiyojning mavjudligi; samarali faoliyatga intilish; kasbiy faoliyatga doir jarayonlarda faol ishtirok etish ishtiyoqi; o‘zini o‘zi namoyon etish ehtiyoji kabi jihatlarni aks ettiradi.

Texnologiyaning kognitiv bosqichida surdopedagoglarda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar oilasini korreksion-pedagogik yordamga jalb etish faoliyatining o‘ziga xosligi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish tezligi, aqliy harakatlarning tizimliligi, **hamkorlik** jarayonida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, qarorlarni umumlashtirish qobiliyatining yuqori mahsuldorligiga erishishga qaratilgan davra suhbatlari olib borildi.

Texnologiyaning kreativ bosqichi o‘quv, tarbiyaviy, tadqiqotchilik faoliyatlariga talabalarning ijodiy yondashuvini ko‘zda tutib, ijodiy fikrlash, ijodiy o‘quv, tarbiyaviy, tadqiqotchilik faoliyatiga qobiliyatlilik, yangilik yaratishga intiluvchanlik, pedagogik vazifalarni oqilona hal etish, o‘z faoliyatini mustaqil loyihalay olish, kasbiy ijodiy vazifalarni hal etishga imkon beruvchi fikriy vaziyatlarni shakllantirish kabi sifatlarning rivojlanganligiga qaratilgan shakllarda o‘z aksini topdi. Shu bilan birga, o‘zaro hamkorlikning ushbu jihatida ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlikning umumiyligini qoidalari, huquq va majburiyatlarini, mazkur faoliyatni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari tavsifidan iborat bo‘lgan «O‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi qoida» bilan tartibga solinib, vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- ota-onalarning farzand tarbiyasi haqidagi psixologik-pedagogik bilimlarini shakllantirish;

- ota-onalarni KTMTT hayotida ishtirok etishga undash;

eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning oilalariga farzandlarini rivojlantirish, tarbiyalash va o‘qitishda yordam ko‘rsatish;

- eng yaxshi oilaviy tajribani o‘rganish va targ‘ib qilish.

Xulosa sifatida ota-onalarga pedagogik yordam ko‘rsatishda oilalarda mavjud quyidagi farqli jihatlarga e’tibor berish lozimligini ta’kidlab o‘tishni joiz hisoblaymiz:

- bolalarda eshitish nuqsonining sodir bo‘lish vaqtini, darajasi;

- ota-onalarning pedagoglar bilan farzandlari tarbiyasi borasida samarali hamkorlikni tashkil etishga tayyorlik darajasi;

- oilaviy vaziyatlarning xususiyatlari;

- eshitish nuqsonini bartaraf etishda ota-onalarda kuzatiladigan individual qiyinchiliklar.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28январдаги 4947-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сон «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 сентябрдаги ПҚ-3955-сон «Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, 2021 йил 4 апрелдаги ПҚ-5071-сонли «Мактабгача таълим соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори.

4. Шипицына Л.М.Ребенок с нарушенным слухом в семье и обществе. - Санкт-Петербург : 2009. - 201

5. Шматко Н.Д., Пелымская Т.В. Если малыш не слышит. Кн. для воспитателей и родителей. М.: Просвещение, 1995.

6.Мастюкова Е.М., Московкина А.Г. Они ждут нашей помощи. М.: 1991.